

TA'LIM MAZMUNINI LOYIHASHNING BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim mazmunini loyihalash tushunchasi, uning boshlang'ich ta'lim bosqichidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy o'quv dasturlarini shakllantirishda ta'lim mazmunining ilmiy, metodik va amaliy asoslari yoritiladi. Maqola ta'lim tizimining sifatini oshirish, shuningdek, ta'lim jarayonini innovatsion va samarali qilish uchun ta'lim mazmunini loyihalashning muhimligi haqida fikr yuritadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida foydalaniladigan loyiha ishlarining maqsadi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim mazmuni, dastur, loyihalash, kognitiv rivojlanish, mustaqil faoliyat, interfaol metodlar, loyiha turlari, individual yondashuv.

ЗНАЧЕНИЕ ПРОЕКТИРОВАНИЯ СОДЕРЖАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие проектирования содержания образования, его роль и значение на этапе начального образования. Также освещаются научные, методические и практические основы содержания образования при формировании современных учебных программ. В статье подчеркивается важность проектирования содержания образования для повышения качества образовательной системы, а также для инновационной и эффективной организации учебного процесса. Раскрывается цель проектных работ, применяемых на уровне начального образования.

Ключевые слова: содержание образования, учебная программа, проектирование, когнитивное развитие, самостоятельная деятельность, интерактивные методы, виды проектов, индивидуальный подход.

THE IMPORTANCE OF CURRICULUM DESIGN IN PRIMARY EDUCATION

Annotation. This article discusses the concept of curriculum design and its role and significance in primary education. It also highlights the scientific, methodological, and practical foundations of curriculum content in the development of modern educational programs. The paper emphasizes the importance of curriculum design in improving the quality of the education system and ensuring an innovative and effective learning process. It also addresses the purpose of project-based work used at the primary education level.

Keywords: curriculum content, syllabus, design, cognitive development, independent activity, interactive methods, types of projects, individualized approach.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimiga bo'lgan talablar ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularda mustaqil fikrlash va kreativ yondashuvni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ta'lim tizimida ham yangi tushunchalar va jarayonlar paydo bo'layotganini ko'rsatadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuni loyihalash tushunchasi ham bor. Ta'lim mazmunini loyihalash — bu o'quvchilarga uzatiladigan bilimlar tizimi, ularni egallash uchun zarur metodlar, vositalar va faoliyat turlarini aniqlash jarayonidir. Bu jarayon nafaqat o'quv dasturlarini yaratishda, balki dars jarayonlarini samarali tashkil qilishda ham asosiy omil bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim — o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi va asosiy bilimlarga ega bo'lishidagi ilk bosqichdir. Shu sababli, bu bosqichda ta'lim mazmuni yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, o'quvchilarning psixologik va individual imkoniyatlarini inobatga olishi, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni nazarda tutishi, integratsiyalashgan (fanlararo) yondashuvni o'z ichiga olishi

Asosiy qism. Ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning psixologik, kognitiv va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olish juda muhimdir. Mazmunli va samarali ta'limni taqdim etish uchun ta'lim loyihasi doimiy ravishda tahlil qilinib, takomillashtirib borilishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim mazmunini loyihalashga o'rgatish, o'qituvchilarning professional rivojlanishida juda muhim bir yo'nalishdir. Ta'lim mazmunini loyihalash, o'qituvchining ta'lim jarayonida qanday maqsadlarni qo'yishi, o'quvchilarning ehtiyojlarini qanday inobatga olishi, o'qitishning samaradorligini qanday oshirishi va o'quvchilarni qanday motivatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich ta'limda ta'lim mazmunini loyihalashda quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

1. Kompetensiyaviy yondashuv – o'quvchilarning real hayotda kerak bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish

2. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – o'quvchilarning mustaqillik rivojlanish jarayonini inobatga olgan holda mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish

3. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir o'quvchining individual rivojlanishiga va qiziqishlariga e'tibor berish

O'quv mazmunining shakllantirilishi shunchaki faktlar va ma'lumotlar yig'indisidan iborat bo'lmazligi kerak. Aksincha, u o'quvchilarning faol fikrlashini rag'batlantiruvchi, hayotga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan, qiziqarli va tushunarli bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'limda har bir mavzu bolalarning bilim olishga bo'lgan tabiiy qiziqishini qo'llab-quvvatlashi, ularni mustaqil fikrlashga va o'rganishga undashi muhimdir. Aynan shuning uchun o'quv mazmunini loyihalashda kompetensiyaviy yondashuv asosiy o'ringa ega bo'lib bormoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, har bir dars orqali o'quvchilarda nafaqat bilim, balki axborot bilan ishlash, muammoni hal qilish, muloqotga kirisha olish, tanqidiy fikrlash kabi hayotiy kompetensiyalar shakllanishi zarur. Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv ta'limda yetakchi tamoyil sifatida qaralmoqda. Loyihalashda har bir mavzu:

- axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
- kommunikativ kompetensiya;
- muammoli vaziyatlarda echim topish;
- tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni shakllantirishi ko'zda tutiladi. Shuningdek,

o'quv mazmuni bolalar uchun qiziqarli, hayotga yaqin va tushunarli bo'lishi zarur.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi. Ta'lim mazmunni loyihalash jarayonida davlat ta'lim standartlari asos qilib olinadi. Shuningdek, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalaniladi. Masalan, Singapur, Finlyandiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning boshlang'ich ta'limdagi yutuqlari tahlil qiladigan bo'lsak, u yerda ta'lim mazmuni bolaga erkin fikrlash, tanqidiy qarash va ijodiy faoliyat olib borish imkoniyatini beradigan tarzda tuzilgan. O'zbekiston Respublikasida ham 2021-yilgi yangi Davlat ta'lim standarti asosida o'quv mazmunini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda. Unda o'quvchining mustaqil fikrlashini, o'zini-o'zi rivojlantirishini, axborotni tahlil qilishni o'rgatuvchi kompetensiyalar asosiy yo'nalish sifatida belgilangan. Shu bilan birga, ta'limda texnologik yondashuvlar, raqamli vositalardan foydalanish, interfaol metodikalar, loyihaviy faoliyat va STEAM yondashuvi asosiy o'rinni egallab bormoqda.

Loyihalash predmeti va mazmuniga ko'ra: bir fan sohasini o'z ichiga olgan loyihalash hamda fanlararo mashg'ulotlarni tizimli loyihalash tadqiqotlarga oid loyihalashga ajratiladi. Shuningdek, loyihalash xarakteriga ko'ra: aniq natija olishga mo'ljallangan loyihalash, ko'p turdagi natijalarni qo'lga kiritishga qaratilgan loyihalash; unda ishtirok etadigan qatnashchilar soniga ko'ra: yakka, juftlikda, kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan loyihalashga bo'linadi. Bundan tashqari, ko'lamiga ko'ra: bir sinf, butun maktab, shahar yoki tuman, viloyat, mamlakat,

dunyo miqyosida hal etiladigan loyihalashga, yana muddatiga ko'ra: qisqa muddatga mo'ljallangan loyihalash, uzoq muddatga mo'ljallangan loyihalashga ajratiladi. Loyihalashning shakli, turidan qat'iy nazar ular muayyan didaktik maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi, auditoriyaning darajasi inobatga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihalash ta'lim ishtirokchilaridan o'zaro hamkorlik faoliyatini, mas'uliyatni talab qiladi. Mas'uliyat, hamkorlik esa o'z navbatida, talabani faollik, mustaqil fikrlash, ijod va izlanish, bilishga bo'lgan doimiy motivatsiyasini ta'minlash hamda pozitiv muloqotga o'rgatadi.

Quyida ta'lim mazmunini loyihalashga oid nazariyalar, metodlar va amaliyotlarni ishlab chiqqan ba'zi muhim olimlar keltirilgan:

Jon Dyui (John Dewey) — pedagogika sohasidagi eng yirik faylasuf va ta'lim nazariyotchilaridan biri bo'lib, ta'lim mazmunini loyihalash va ta'lim tizimini takomillashtirish borasida katta ta'sir ko'rsatgan. U pedagogikada konstruktivizm nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan va ta'limni nafaqat bilim olish jarayoni, balki o'quvchilarni hayotga tayyorlash va ular uchun real muammolarni hal qilishni o'rgatish jarayoni sifatida ko'rgan.

Benjamin Blum ta'limda maqsadlarni aniq belgilashga va o'quvchilarni turli darajalarda o'qitishga e'tibor qaratgan. U "Bloomning taksonomiyasi"ni ishlab chiqqan, bu esa ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini baholashda keng qo'llaniladi. Bloomning taksonomiyasi o'quvchilarning o'qish jarayonidagi yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini (tahlil qilish, sintez qilish, baholash) rivojlantirishga qaratilgan.

Lev Vygotsky — sovet psixologi va pedagogi bo'lib, ta'lim va rivojlanish bo'yicha qimmatli g'oyalar ishlab chiqqan. Uning fikriga ko'ra, ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning ijtimoiy va madaniy kontekstini hisobga olish zarur, chunki bilish jarayoni faqat shaxsiy tajriba asosida emas, balki ijtimoiy aloqalar va madaniy tajribalar orqali rivojlanadi. Vygotskyning g'oyalari pedagogikada madaniy-historik yondashuv deb ataladigan nazariyaning asosini tashkil qiladi.

Jean Piaget — bolalar rivojlanishi va ularning kognitiv qobiliyatlari bo'yicha eng mashhur olimlardan biridir. U kognitiv rivojlanish nazariyasini yaratgan va ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual rivojlanish bosqichlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Piagetning nazariyasi, bolalarning tafakkur va bilish jarayonlarining qanday rivojlanishini tushuntiradi va ta'lim mazmunini loyihalashda bu rivojlanish bosqichlarining ahamiyatini ko'rsatadi.

Jerome Bruner, ta'lim mazmunini loyihalashda "o'z-o'zini kashf qilish" va "o'rganish orqali o'qitish" prinsiplarini qo'llagan. U o'qitishning konstruktiv usullarini rivojlantirib, ta'lim mazmunini o'quvchilarga aktiv ravishda bilimni o'zlashtirish va kashf etish imkoniyatini beradigan tarzda loyihalash zarurligini ta'kidlagan.

Ta'lim mazmunini samarali loyihalashda o'qituvchining roli nihoyatda muhimdir. U nafaqat mavzuni rejalashtiradi, balki uni o'quvchining idrokiga mos shaklda yetkazadi, turli metod va vositalardan foydalanib, o'quvchilarning faolligini oshiradi. O'qituvchi zamonaviy metodik yondashuvlarni chuqur bilishi, har bir darsga ijodiy yondashishi, o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikda ishlashi orqali ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri loyihalashtirilgan ta'lim mazmuni: a) o'quvchilarda mustahkam bilim poydevorini yaratadi; b) o'qituvchiga darsni samarali tashkil etish imkonini beradi; d) ta'lim jarayonining natijadorligini oshiradi e) o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonidagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Loyihalash – bu g'oyalar orqali vujudga keladigan muammolar yechimi jamlanmasi, uni hal qilish vositasi hamda olingan natijalarni amalda qo'llash jarayoni. Loyihalash – bu muayyan vaqt oralig'ida ma'lum bir izchillikda kechadigan, noyob natijaga olib keladigan hodisa, jarayondir. Loyihalash atamasining keng va tor ma'nolarini farqlash maqsadga muvofiq. Hozirgi sharoitda jamiyatda loyihalash asosida ish olib bormaydigan faoliyatning biror sohasi yo'q.

Ayniqsa, ta'lim jarayonida loyihalash usulidan foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodga loyihalash ko'nikmalarini singdirish murakkab, lekin loyihalash mamlakat va jamiyat manfaatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan jarayon hisoblanadi. U har ikkala ta'lim subyektlaridan iroda, izchillik, ulkan safarbarlik, fidoiylik, eng asosiysi, jiddiy intilish va motivatsiyani talab qiladi. Loyihalash faoliyatiga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda dalillarni taqqoslash, mantiqan umumlashtirish, tanqidiy yondashish, xulosalarni nazariyaga aylantirish, tartib, reja, sa'y-harakat, barcha kuchni ishga solish, vaqtni bekor o'tkazmaslik, didaktik muammoni atroflicha hal qilish, tizimli fikrlashni rivojlantirish hamda shaxsning bilish faolligini oshirishning muhim omilidir.

Metodlar. Boshlang'ich sinflarda matematika fanidan loyiha asosida o'tkaziladigan dars o'quvchilarning tezkor, tanqidiy va mantiqiy fikrlashiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni og'zaki hisoblash va bilimlarini faollashtirishga yordam beradi. Bunda quyidagi metodlardan foydalansak bo'ladi: "Sehrli stol" metodi, "Sonlarni sonlardan ajratamiz" metodi, "Juft va toq" metodi, "Qadamma qadam" metodi, "Munozara" metodi, "Raqamlar va jumboqlar" metodlari. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili fanidan o'quvchilarning imlo qoidalariga amal qilish, mazmun jihatidan to'g'ri yondashish va kreativ fikrlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar bilimlarini faollashtirishga tayyorlashda tavsiya etilayotgan metodlar "Suhbat" metodi, "Kungaboqar" metodi, "to'g'ri va chiroyli yoz" metodi, "+ va -" metodi, "Assisment" metodi, "Chala xatni davom et" metodi, "TTT" (To'g'ri tasvirni toping) metodi kabi metodlar tavsiya etiladi. Bundan tashqari Tabiiy fanlardan fanga oid bilimlarini chuqurlashtirib, uni kundalik hayot bilan bog'lash uchun bu fanda quyidagi metodlardan foydalansa bo'ladi: "Piyola" metodi, "Ongli tanla" metodi, "Birgalikda to'ldiramiz" metodi, "Fikrlarni umumlashtiring" metodi, "SMART" Metodi, "Aql xaritasi", "BBB" (Bilardim, Bilmoqchiman, Bilib oldim) metodi, "Eng yaxshi fikr" kabi metodlar tavsiya etiladi. Mazkur loyihalash asosida tashkil etilgan darslar nafaqat ijobiy samara beribgina qolmay, balki dars sifatini yaxshilab, faollikni oshiradi.

Ta'lim mazmunini loyihalashda qo'llaniladigan metodlar: Birinchisi "proyekt yondashuvi"-bu yondashuvda o'quvchilarga biror loyiha yoki muammoni hal qilishni taklif qilish orqali ta'lim mazmunini loyihalash mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, hamkorlikda ishlashini va o'z bilimlarini amalda qo'llashni rag'batlantiradi. Ikkinchisi "konstruktivist yondashuv" - Jean Piaget va Lev Vygotsky ning ta'lim nazariyalariga asoslangan konstruktivist yondashuv o'quvchilarni bilimni o'zlari yaratishga undaydi, bu yondashuvda o'quvchilar yangi bilimlarni o'z tajribalari va oldingi bilimlari bilan bog'lashadi, o'qituvchi esa o'quvchilarni o'z-o'zini kashf qilishga yordam beruvchi qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Uchinchisi "muammoli o'rganish(problem-based learning)- bu metodda o'quvchilarga haqiqiy hayotiy muammolarni hal qilish topshiriladi, o'quvchilar muammoni hal qilish jarayonida o'z bilimlarini amalda qo'llashadi, kritikal fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. To'rtinchisi "kooperativ o'rganish" -bu yondashuvda o'quvchilar guruhlar bilan ishlashadi va birgalikda bilimlarni o'zlashtirishadi, kooperativ o'rganish o'quvchilarga bir-biridan o'rganishga, g'oyalarni baham ko'rishga va muammolarni birgalikda hal qilishga imkon beradi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'limda ta'lim mazmunini puxta loyihalash — bu oddiygina rejalashtirish emas, balki har bir bolaning ichki salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayondir. Yaxshi loyihalangan o'quv mazmuni orqali o'quvchilar chuqur va mustahkam bilimga ega bo'libgina qolmay, balki har tomonlama yetuk, faol, zamon talablari darajasidagi shaxs sifatida shakllanadi. Shu bois, har bir pedagog o'z faoliyatida o'quv mazmunini loyihalashga alohida e'tibor qaratmog'i, bu boradagi bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.

3. Piaget, J. (2003). The Psychology of Intelligence. London: Routledge.
4. Xolmuratov Sh. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida samarali boshqarishni tashkil etish yo'llari.(o'quv qo'llanma). Jizzax. «Poytaxt exculsive».2024.-B.252
5. Zaynullaeva M. (2020). Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim mazmunini o'zgartirish. Toshkent: Ziyo-nur nashriyoti.
6. Mingbayeva M. (2020). O'zbekiston ta'lim tizimi: Yangi yondashuvlar va istiqbollar. Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi.
7. Sulaymanova D.N. Loyihaga asoslangan o'qitish(PLB) bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiya sifatida "Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o'qitishning psixologikpedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani" 2023-yil 2-iyun.
8. Haydarkulova M.Z. Boshlang'ich sinflarda darslarni loyihalash ta'lim tamoyili asosida tashkil etish. Pedagogik mahorat j. 2024-yil 10-son. Buxoro